

SANOATDA MAHALLIY XOM-ASHYODAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

Xotamov Ibodullo Sadulloyevich,

*Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, Iqtisodiyot
kafedrası professori, i.f.n.*

E-mail: xotamov.ibodulla@timeedu.uz

Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
madinabonuismatulloeva@gmail.com*

Annotatsiya. Bugungi kunda sanoat tarmoqlarida xom-ashyo resurslaridan samarali foydalanish – iqtisodiy raqobatbardoshlik, ekologik barqarorlik va resurslar tejashning muhim yo'nalishidir. Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi – mahalliy xom-ashyolardan sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida yangi mahsulotlar yaratish orqali foydalanish hajmini kengaytirish va uni optimallashtirishdir. Tadqiqotda korxonalarda innovatsion faoliyatni shakllantirish asosida yuqori texnologiyaga asoslangan raqobatbardosh ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahalliy xom-ashyodan foydalanish samaradorligini oshirish – resurs-tejamkorlik, chiqindilarni kamaytirish hamda energiya va atrof-muhit yukini pasaytirish masalalarini ko'rib chiqiladi. Ushbu ishni amalga oshirish orqali sanoat ishlab chiqarishida mahalliy xom-ashyolardan foydalanishni chuqurlashtirish, uskunalar va mahsulot tannarxini pasaytirish, ekologik hamda iqtisodiy jihatdan foydali yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sanoat, xom-ashyo, mahalliyashtirish, iqtisodiy samaradorlik, resurs tejamkorlik, sanoat chiqindilarini qayta ishlash, energiya va atrof-muhit samaradorligi

Annotation. Today, the effective use of raw materials in industrial sectors is an important direction of economic competitiveness, environmental sustainability and resource conservation. The main goal of this research work is to expand and optimize the use of local raw materials in industrial production processes by creating new products. The study considers the development of competitive production based on high technology based on the formation of innovative activity at enterprises, increasing the efficiency of the use of local raw materials - resource saving, reducing waste, and reducing the energy and environmental burden. Through the implementation of this work, the possibilities of deepening the use of local raw materials in industrial production, reducing the cost of equipment and products, and introducing new environmentally and economically beneficial technologies are analyzed.

Key words: industry, raw materials, localization, economic efficiency, resource conservation, industrial waste recycling, energy and environmental efficiency

Аннотация. В настоящее время эффективное использование сырьевых ресурсов в промышленности является важным направлением обеспечения экономической конкурентоспособности, экологической устойчивости и ресурсосбережения. Основная цель данного исследования – расширение масштабов и оптимизация использования местного сырья в процессах промышленного производства путём создания новых продуктов. В исследовании рассматриваются вопросы развития конкурентоспособного производства на основе высоких технологий путём формирования инновационной

деятельности на предприятиях, повышения эффективности использования местного сырья – ресурсосбережение, сокращение отходов, снижение энергозатрат и нагрузки на окружающую среду. Реализация данной работы позволит углубить использование местного сырья в промышленном производстве, снизить стоимость оборудования и себестоимость продукции, а также внедрить новые экологически и экономически выгодные технологии.

Ключевые слова: промышленность, сырьё, локализация, экономическая эффективность, ресурсосбережение, переработка промышленных отходов, энерго- и экологическая эффективность

Kirish

Respublikamizda yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yetarli. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, sanoat tarmoqlarining hozirgi holati va uning hududiy tarkibi, mavjud xom ashyo va mehnat resurslari, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish talab darajasida emas. Ayni vaqtda, ushbu muammolarni atroflicha ilmiy asosda tadqiq etish ham amaliyotdan orqada qolmoqda.

Keskin raqobat muhiti shakllangan bir sharoitda mahalliy xom-ashyo orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga asoslangan mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish asosida eksport salohiyatini rivojlantirish masalalarini chuqur nazariy va amaliy jihatdan o'rganish ham muhim va dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etish joizdir.

Sanoatni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishda mahalliy xom-ashyodan samarali foydalanish muhim o'rin tutadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 47-maqsadida aynan mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or

texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu o'nalishda quyidagilarga erishish rejalashtirilgan: Sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish; Qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish; Yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin — 1,5 barobar, kumush — 3 barobar, uran — 3 barobar oshirish; elektrotexnika sanoatida misni qayta ishlash hajmini 300 ming tonnaga oshirish va barcha maishiy texnikani ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga 1,5 milliard dollar investitsiya jalb qilish; elektrotexnika, mashinasozlik, to'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, metallni qayta ishlash, geologiya, energetika, bio-texnologiya, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, transport va logistika kabi yo'nalishlarda "Izlanish va rivojlantirish" (R&D) markazlarini tashkil etish [1].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mahalliyashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mamlakatlar

rivojlanish strategiyalarida ushbu yo'nalishning muhimligini ko'rsatadi. O'zbekistonda mahalliyashtirish dasturi 1990-yillarning oxiridan boshlab, mamlakatning sanoat va iqtisodiy siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida shakllana boshladi. Azizov va Xamroyev (2015) tadqiqotiga ko'ra, O'zbekistonda mahalliyashtirish dasturi sanoat mahsulotlarining mahalliy ishlab chiqarish hajmini oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni yaratishga qaratilgan [2]. Shuningdek, Jahon bankining hisobotlarida (2020) qayd etilganidek, mahalliyashtirish jarayoni milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin, lekin bunday dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun samarali tartibga solish va texnologik rivojlanish talab qilinadi [3]. Mahalliyashtirishning yana bir muhim jihati bo'lib, mahalliy va xalqaro bozorlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash hisoblanadi, chunki cheklangan ichki bozor raqobatni cheklashi mumkin (Smith va Taylor, 2018) [4].

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga nazar soladigan bo'lsak, bugungi kunda korxona faoliyatida recurclar tejamkorligini oshirish bo'yicha zamonaviy ucullardan foydalanilmoqda. Bular jumlaciga: Lean production systems (tejamkor ishlab chiqarish tizimi), RP (Resource Planning – recurclarni rejalashtirish), ERP (Enterprise Resource Planning – korxona recurclarini rejalashtirish), CSRP (Customer Synchronized Resource Planning – recurclarni

mijozlar bilan cinxron rejalashtirish) kabi konsepsiyalarni kiritish mumkin.

Tejamkor ishlab chiqarish (Lean production) bu Djim Vomak, Daniel Djonc, Daniel Ruzlar “Dunyoni o'zgartirgan mashina” kitobida Toyota ishlab chiqarish tizimi micolida ishlab chiqarish faoliyatini ko'rib chiqdilar. Bu tizim muntazam ravishda ishlab chiqarish faoliyatida chiqindilarni yo'q qilishga qaratilgan. Bunda acociy vocitalardan camarali foydalanish orqali amortizasiya xarajatlarini kamaytirish, ishchi kuchidan camarali foydalanish orqali mehnat recurclariga ketgan xarajatlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish jarayonidagi brak mahsulotlar sonini kamaytirish va yo'qotishlarni bartaraf etish orqali bir birlik mahculotni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni pacaytirishga acociy e'tibor karatiladi [5].

X.S. Saidov o'zining “Barqaror rivojlanish sharoitida sanoat siyosatini modernizatsiyalash” (2020) nomli monografiyasida O'zbekistonda “yashil” sanoat siyosatini shakllantirish, ekologik muhofaza choralari kuchaytirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligini asoslab bergan [6]. I.S. Xotamov tomonidan chop etilgan “Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari” (2025) nomli monografiyada esa sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirishning hududiy muammolari, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida mahsulot ishlab

chiqarish tannarxi dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali tannarxni pasaytirish yo'llari, "Sanoat-4.0" konsepsiyasi asosida korxonalarning texnologiyalarga bo'lgan talabini rag'batlantirish masalalari tadqiq qilingan [7].

Tadqiqot metodologiyasi


Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida zamonaviy iqtisodiy tahlil va siyosiy-ijtimoiy baholashda keng qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Sanoatda mahalliy xomashyodan samarali foydalanish, uni xalqaro amaliyot asosida tahlil qilish va milliy rivojlanish sharoitlariga moslashtirishda deduksiya va induksiya metodlari alohida ahamiyat kasb etdi. Jumladan, umumiy nazariy yondashuvlardan O'zbekiston sharoitiga xos xulosalar chiqarishda deduktiv usul qo'llanilgan bo'lsa, xalqaro amaliyot asosida umumlashtirilgan qarashlarni shakllantirishda induktiv usuldan foydalanildi. Shuningdek, abstrakt-mantiqiy fikrlash va ilmiy abstraksiya metodlari orqali resurs tejamkorligi,

tamoyillari va siyosiy vositalari tahlil qilindi. Jarayonlarni tizimli tahlil qilishda sintez va tahlil, ya'ni tarkibiy qismlarni o'rganib, ularni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish yondashuvi asosiy metodologik tamoyil bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Korxonalarda innovatsion faoliyatni shakllantirish asosida yuqori texnologiyaga asoslangan raqobatbardosh ishlab chiqarishni rivojlantirishda bevosita korxonalar o'rtasidagi kooperasiya aloqalarini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish o'zaro chambarchas bog'langan jarayonlardir. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasining kengayishi tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar yuzasidan oxirgi o'n yillikdagi (2014-2023 yillar) ma'lumotlarga nazar solsak, foliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni sezilarli darajada o'sganini ko'rish mumkin: 2018-yildagi 285 531 tadan 2023-yilda korxonalarning soni 592 371 taga etgan.



1- rasm. Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'zgarishi[10]

Bu o'zgarish rivojlanayotgan biznes muhiti va iqtisodiy o'sishni ko'rsatadi. Korxonalar soni bo'yicha Toshkent shahri doimiy ravishda eng ko'p korxonalar soniga ega bo'lib, izchil ustunlik qilmoqda. 2023-yilda korxonalar soni 117812 taga etgan va jadal o'sishda davom etmoqda. Bu uning iqtisodiy faoliyatdagi markaziy rolini aks ettiradi. Toshkent shahridagi korxonalar faoliyatini moliyaviy modellashtirishda uning kapital maqomi, biznes va investisiyalarni jalb qilish ko'rsatkichlari kuchli omillar bo'la olishiga dalolat berishi mumkin. Toshkent shahri bilan bir qatorda, Farg'ona, Namangan va Samarqand viloyatlarida ham sezilarli o'sish kuzatilib, 2023 yilda mos ravishda 52 746, 36 914 va 54 163 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu qulay iqtisodiy sharoitlar va potensial maqsadli rivojlanish tashabbuslari mavjudligini ko'rsatadi. Eng tez rivojlanayotgan hududlar (foiz o'sishi bo'yicha) Toshkent shahri (83,36%), Namangan

(85,17%), va Farg'ona (106,51%) bo'lib, barqaror o'sish hududlariga Andijon, Buxoro va Qashqadaryo kabi viloyatlar misol bo'la oladi. Qoraqalpog'iston oz sonli korxonalar bilan ish boshlagan bo'lsa-da, bu yillar davomida juda sust sur'atlarda, lekin barqaror o'sayotganini ko'rish mumkin, bu mintaqaning iqtisodiy rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Mahalliy xom-ashyodan samarali foydalanish sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi, importga qaramlikni kamaytirish, eksport salohiyatini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim omildir. Bu masala quyidagi jihatlari bilan dolzarb hisoblanadi:

Import o'rnini bosish siyosati:

➤ ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, import o'rnini bosish strategiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir;

➤ mahalliy xom-ashyo resurslarini qayta ishlash orqali tayyor

mahsulot ishlab chiqarish importdan qimmatbaho komponentlar xarid qilish ehtiyojini kamaytiradi.

Iqtisodiy mustaqillik:

➤ tabiiy resurslarga boy bo'lgan davlatlar bu ustunlikni sanoat sohalariga yo'naltirib, iqtisodiy suverenitetni kuchaytiradi;

➤ mamlakatning turli noqulay geosiyosiy vaziyatlarda tashqi bozordan qaramligini saqlab qoladi;

➤ turli salbiy konyunkturaviy o'zgarishlarda iqtisodiy jihatdan tanazullarning oldini oladi.

Sanoatning

raqobatbardoshligini oshirish:

➤ mahalliy xom-ashyo narxi va logistika xarajatlari past bo'lishi mumkin, bu esa tayyor mahsulot tannarxining pasayishiga olib keladi;

➤ bu omillar eksport salohiyatini kuchaytiradi.

Atrof-muhit barqarorligi va yashil rivojlanish:

➤ mahalliy xom-ashyoni ekologik toza texnologiyalar asosida qayta ishlash barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi.

Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

- sanoat korxonalarining ichki tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiyasi doirasida uzoq muddatli xo'jalik aloqalarini shakllantirish hamda kengaytirish uchun zarur qonunchilik bazasini va bozor infratuzilmasini yaratish;

- uskunar, butlovchi buyumlar, xom ashyo va materiallar ishlab

chiqarishni mahalliyashtirishni amalga oshirayotgan korxonalarning zarur xom ashyo va kredit zaxiralaridan erkin foydalanishini ta'minlash;

- mahalliy xom-ashyo negizida tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish borasida har yili qabul qilinadigan dasturlarning sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini oshirish, shuningdek dasturlarga kiritilgan mahalliyashtirish loyihalarining o'z vaqtida bajarilishi uchun ijrochilarning javobgarligini kuchaytirish;

- yangi texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni yirik va kichik korxonalarda joriy etish imkonini beradigan innovatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish uchun venchur jam'armalarini, shuningdek infratuzilma obyektlarini tashkil etish [8].

Mamlakatimiz zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar orqali nafaqat ichki bozorda, balki raqobat kurashi kuchayib borayotgan jahon bozorlarida o'z o'rnini topishi uchun yagona yo'l bo'lib qoldi. Iqtisodiyot sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan samarali islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qo'yilgan qadamlardan yana biri erkin iqtisodiy zonalarini investision jozibadorligini yuksaltirish va kichik sanoat zonalarini kengaytirish bo'ldi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilning

yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda **1 454 573,9** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023

yilning mos davriga nisbatan **6,5 %** ga o'sdi. Sanoat tarmog'ining o'sishi **6,8 %** ni tashkil etdi va YaIM o'sishiga ijobiy hissassi **1,7 f.p.**ni tashkil etdi.



2-rasm. 2020-2024 yillarda sanoat ishlab chiqarishi hajmi (yanvar-dekabr, trln so'mda) [9]


2024 yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan **885 818,9** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **106,8** foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **85,1** foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **7,6** foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **6,8** foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,5** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab

chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,7 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **5,5 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **5,3 %** ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **1,9 %** ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, ishlab chiqaradigan sanoatida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (2023 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi **127,2 %**), shuningdek, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (2023 yilning yanvar-

dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,1 %) hajmi oshdi.



3-rasm. 2020-2024 yillarda Sanoat ishlab chiqarishi FHI indeksi dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan % hisobida) [9]

2025 yil 1-yanvar holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 424,8 mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 358,1 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (96 083 ta), Toshkent (40 500 ta), Samarqand (37 514 ta), Farg'ona (34 302 ta), Qashqadaryo (27 456 ta), Buxoro (26 186 ta) va Andijon (25 163 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 137 109 ta, sanoat sohasida – 55 646 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 30 952 ta, qurilish

sohasida – 27 408 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 26 135 tani tashkil etdi.

2020–2024 yillar oralig'ida sanoatda mahalliy xom-ashyo ulushi 42% dan 61% gacha oshgan. To'qimachilik (88%), qurilish materiallari (91%) va oziq-ovqat sanoatida (83%) yuqori ko'rsatkichlar kuzatilmoqda. Mashinasozlik va elektronika tarmoqlarida esa bu ko'rsatkich 41% va 37% ni tashkil qilmoqda.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda quyida biz mahalliy sanoat korxonalarida xom-ashyodan samarali foydalanish bo'yicha asosiy muammolar va ularning yechimlariga e'tibor qaratamiz (1-jadval).

1- jadval.

**Sanoat korxonalarida mahalliy xom-ashyodan samarali foydalanish
bo'yicha asosiy muammolar va ularning yechimlari**

t\r	Aniqlangan muammo	Tavsifi	Taklif etilayotgan yechimlar
1.	Texnologik moslashuv yetishmasligi	Ko'p hollarda mahalliy xom-ashyo past sifatli yoki zamonaviy qayta ishlash liniyalariga mos emas	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan sanoat integratsiyasini kuchaytirish
2.	Xom-ashyo logistikasining samarasizligi	Ichki transport, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi zaif	Hududiy sanoat logistik klasterlari tashkil qilish, davlat xususiy sherikchiligini rivojlantirish
3.	Qonunchilikdagi noaniqliklar yoki zaif monitoring	Mahalliy xom-ashyodan foydalanuvchi korxonalarga berilgan imtiyozlar amalda to'liq ishlamaydi	Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va mustaqil monitoring tizimi joriy qilish
4.	Malakali kadrlar tanqisligi	Xom-ashyoni sifatli qayta ishlash uchun zarur bo'lgan mutaxassislar yetishmaydi	Texnik oliy ta'lim muassasalari bilan sanoat korxonalarini o'rtasida dual ta'lim tizimini rivojlantirish
5.	Mahsulotni qo'shilgan qiymat bilan ishlab chiqarish darajasi pastligi	Xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirish darajasi past	Chuqur qayta ishlash liniyalarini subsidiyalash, yuqori qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish

Mahalliyashtirish jarayoni iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tadbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xom-ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, mahalliy xom-ashyodan samarali foydalanishni amalga

oshirilishi quyidagi ijobiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- sanoat turli tarmoqlarining qo'shilgan qiymati yuqori darajada bo'lgan mahsulotlar eksportini ko'paytirish va tegishli ravishda, an'anaviy eksport salmog'ini kamaytirish;
- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektorida mamlakatimiz korxonalarining

kooperatsiyasi salohiyatidan yuqori darajada foydalanish;

- mahalliy xom-ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarni zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish va h.k.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkin, mahalliy xom-ashyo orqali yuqori texnologiyaga asoslangan raqobatbardosh ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'llarini har tomonlama o'rganish va ilmiy yondashish bugungi kunning talablaridan biridir. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bir qatorda korxona raqobatbardoshligini oshirish to'g'risida quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin.

1. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy transformatsiyaning asosiy negizida bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarining shakllanishi va rivojlanib borishi ma'naviy hayotimiz tarixida mavjud bo'lgan yuksak axloqiylik g'oyalarga tayanganligidan dalolat beradi va shunga muvofiq faollashib borishiga keng imkoniyatlar yaratilishi kerak bo'ladi.

2. Bugungi kunda ko'plab korxonalarda bozor muhitini o'zgaruvchanlik xususiyatiga moslashib, mavjud aqliy, moddiy, moliyaviy, tashkiliy yo'nalishlardagi imkoniyatlardan faoliyat jarayonida to'liq foydalanishga erishish lozim.

3. Korxona raqobatbardoshligi iqtisodiy erkinlik, siyosiy barqarorlik, huquqiy asoslangan, institusional ta'minlangan sharoitda yuzaga keladi. Shu omillar asosida bozorda marketing faoliyatini yuritish natijasida korxona iqtisodiyotining nafililik darajasiga erishish xamda talab va taklifni to'la - to'kis o'rganishga qaratilgan barcha imkoniyatlarni ishga solish kerak bo'ladi.

4. Mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda korxona iqtisodiy faoliyatining foydali me'yorlari va ularga mos keladigan iqtisodiy holatlar asosiy mezon sifatida qaralishi zarur.

5. Mahalliy xom-ashyodan samarali foydalanish sanoat taraqqiyotining hal qiluvchi omilidir. Qonunchilik asoslari va ijobiy statistika mavjud, ammo texnologik va ilmiy resurslar yetishmovchiligi saqlanmoqda. Mahalliy xom-ashyoni chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan investitsiya siyosati muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Azizov, B., & Khamroev, S. (2015). Mahalliyashtirish siyosatining rivojlanishi va uning iqtisodiy samarasini oshirish. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Nashriyoti.
3. Jahon Banki. (2020). O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va rivojlanish hisobotlari. Jahon Banki Nashriyoti.

4. Smith, R., & Taylor, J. (2018). *Local manufacturing and economic independence: Case studies from emerging economies*. Cambridge University Press.
5. Urbance, Randy. "ESD.83 Book Review, *The Machine that Changed the World*" (PDF). MIT. Retrieved 13 August 2015.
6. Saidov, X.S. (2020). *Barqaror rivojlanish sharoitida sanoat siyosatini modernizatsiyalash*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
7. Xotamov I.S. (2025). *Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari*. Monografiya. ISBNB 978-9910-8731-7-1. – T. "Best-pulish" nashriyoti.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.01.2022 yildagi PQ-99-son "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-5836411>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. www.stat.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi